

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlari.....	106
------------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 327. 341.24

**SHARQ VA G'ARB SIYOSIY TAMADDUNIDA TINCHLIK VA XAVFSIZLIK MASALASI
TALQINI****ВОПРОС ИНТЕРПРЕТАЦИИ МИРА И БЕЗОПАСНОСТИ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ
ЦИВИЛИЗАЦИИ ВОСТОКА И ЗАПАДА****INTERPRETING PEACE AND SECURITY IN EASTERN AND WESTERN POLITICAL
CIVILIZATIONS****Sotvoldiyev Jaxongir Sultonali o'g'li** Buxoro davlat universiteti, Tarix va yuridik fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 5-1SIYOS-24
guruh talabasi**Annotatsiya**

Sharq va G'arb mutafakkirlarining xavfsizlik, barqarorlik va tinchlik borasidagi siyosiy-huquqiy qarashlari madaniy merosining muhim tarkibiy qismini tashkil etib, bunday qarashlar zahirida o'tgan asrlarimizning ulkan siyosiy-huquqiy tajribasi mujassamlashgan. Mazkur maqolada Sharq va G'arb mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy qarashlari asosida xavfsizlik, barqarorlik va tinchlik masalalariga yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, Konfutsiy, Avgustin, Forobiy, Ibn Sino, Foma Akvinskiy, Martin Lyuter, Gyugo Grotsiy, Gobbs, Kant kabi mutafakkirlarning tinchlik, adolat, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi va xalqaro munosabatlar haqidagi fikr-mulohazalari tahlil etilib, tarixiy tajriba va hozirgi davr o'rtasida bog'liqlik ochib beriladi. Ularning zamonaviy siyosiy barqarorlik, xavfsizlik va tinchlikni saqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Аннотация

Политико-правовые взгляды мыслителей Востока и Запада на вопросы безопасности, стабильности и мира являются важной частью их культурного наследия, в которых отражён богатый опыт наших предков в сфере государственной и правовой мысли. В статье анализируются подходы к указанным вопросам на основе воззрений выдающихся философов Востока и Запада. В частности, рассматриваются идеи Конфуция, Августина, аль-Фараби, Ибн Сины, Фомы Аквинского, Мартина Лютера, Гуго Гроция, Гоббса и Канта относительно мира, справедливости, верховенства закона, государственного управления и международных отношений. Раскрывается взаимосвязь между историческим опытом и современностью, подчёркивается значимость их учений как теоретической основы для обеспечения политической стабильности, безопасности и сохранения мира в современных условиях.

Abstract

The political and legal perspectives of Eastern and Western thinkers on issues of security, stability, and peace represent a vital component of their respective cultural heritages, embodying the extensive political and legal experience of past generations. This article explores various approaches to these issues by drawing upon the political and legal philosophies of prominent thinkers from both traditions. Specifically, it examines the views of Confucius, Augustine, al-Farabi, Avicenna, Thomas Aquinas, Martin Luther, Hugo Grotius, Hobbes, and Kant regarding peace, justice, the rule of law, governance, and international relations. The study highlights the interconnection between historical experiences and contemporary realities, emphasizing the relevance of these philosophical teachings as foundational frameworks for promoting political stability, ensuring security, and sustaining peace in today's world.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, siyosat, hokimiyat, davlat, qonun, rahbar, adolat, totuvlik, mudofaa, hamkorlik, respublika, suverenitet

Ключевые слова: безопасность, политика, власть, государство, закон, руководитель, справедливость, согласие, оборона, сотрудничество, республика, суверенитет

Key words: security, politics, power, state, law, leader, justice, harmony, defense, cooperation, republic, sovereignty.

KIRISH

Bugungi kunga qadar Sharq va G'arb mutafakkirlarining xavfsizlik, barqarorlik va tinchlik borasidagi siyosiy-huquqiy qarashlarida boy nazariy va amaliy tajriba mujassam bo'lib, uning ibtidosi Konfutsiy, Suqrot, Platon va Aristotel yashagan davrlarga borib taqaladi. Bu siyosiy ta'limotlar rivojining tarixiy bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, asrlar davomida taraqqiy etgan siyosiy konsepsiyalar mazmun-mohiyati va usullarini tahlil etadi, siyosat hayotda ajdodlarimiz

SIYOSAT

erishgan yutuq va kamchiliklarning sabablarini ochib beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu siyosiy qarashlarning naqadar dolzarb ekanligiga e'tiborni qaratib shunday deydi: "Barchamiz birgalikda kelajakka ishonch bilan intilib, butun diqqat-e'tiborimizni oldimizda turgan vazifalarni hal etishga qaratishimiz, xalqimiz kutayotgan, davrning o'zi talab etayotgan yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surishimiz lozim. Biz o'tmishdan, kechagi tariximizdan, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarimizdan zarur xulosalar chiqarib, O'zbekistonimizning dunyodagi o'rni va nufuzini yanada yuksaltirishimiz, Vatanimiz shuhrati va shon-sharafini hamma jabhalarda munosib va mardona himoya qilishimiz kerak" [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolani tayyorlashda tarixiy-siyosiy, taqqoslash va tizimli tahlil metodlari asosida Sharq va G'arb mutafakkirlarining tinchlik, xavfsizlik va siyosiy barqarorlik haqidagi qarashlari tahlil etiladi. Konfutsiy, Forobiy, Ibn Sino, Avgustin, Kant, Gobbs kabi mutafakkirlarning siyosiy konsepsiyalari zamonaviy siyosiy-huquqiy g'oyalar bilan taqqoslanib, ularning dolzarbligi ochib beriladi. Tarixiylik va zamonaviylik uyg'unligiga tayanilish orqali siyosiy tafakkur taraqqiyoti, tinchlik konsepsiyasining shakllanishi va bugungi xalqaro barqarorlikka ta'siri ilmiy asosda yoritiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Konfutsiy (miloddan avvalgi 551-479-yil) Xitoyning buyuk faylasufi, konfutsiychilik ta'limoti asoschisi va siyosiy arbobidir. Konfutsiy ta'limotining asosiy mohiyati "Lun yuy" ("Suhbatlar va mulohazalar") kitobida bayon etilgan. Konfutsiy boshqaruvning zo'ravonliksiz usullari tarafdori bo'lgan holda hukmdorlar, amaldorlar va fuqarolarni o'z munosabatlarini ezgulik asosida qurishga undagan. Bu undov, birinchi navbatda, hukmdorlarga qaratilgan, chunki ularning ezgulik tamoyillariga rioya qilishlari hal qiluvchi rol o'ynaydi va fuqarolarning xulq-atvorida axloqiy me'yorlarning ustunligini oldindan belgilab beradi. Zo'ravonlikni rad etib, Konfutsiy shunday deydi: "Nega davlatni boshqarayotganda odamlarni o'ldirasan, yaxshilikka intilsang, xalq mehribon bo'ladi. Oliyjanob kishining axloqi shamolga o'xshash; quyi qatlamdagi odamning axloqi maysaga o'xshash. Shamol esgan joyda maysalar egiladilar". Konfutsiyga ko'ra, fuqarolarning asosiy fazilati hukmdorga sadoqat, barcha "keksalarga" itoatkorlik va ehtiromda bo'lishdir.

Konfutsiyni siyosiy qarashlarida jamiyatning yuqori va quyi qatlamlari o'rtasida ichki tinchlikka erishish va boshqaruvni barqarorlashtirishga intilgan. U sof axloqiy omillar bilan bir qatorda, aholi orasida boylik va qashshoqlikning qutblanish jarayonlarini bartaraf etish zarurligiga ham e'tibor qaratadi. "Boylik teng taqsimlansa, – deydi u, – qashshoqlik bo'lmaydi, mamlakatda totuvlik hukmdor bo'lsa, xalq kam bo'lmaydi; tinchlik hukmdor bo'lsa (yuqori va quyi o'rtasidagi munosabatlarda) hukmdorni ag'darib tashlash xavfi bo'lmaydi". Konfutsiy isyon va hokimiyat uchun kurashni rad etib, fuqarolar tinchligining afzalliklarini yuqori baholaydi. Konfutsiy tashqi urushlarga, Xitoy qirolliklarining bir-biriga yoki boshqa xalqlarga ("varvarlar") qarshi bosqinchilik yurishlariga ham salbiy munosabatda bo'lgan. Konfutsiy Xitoy hukmdorlarining da'volarini prinsipial jihatdan rad etmasdan, ularga shunday maslahat bergan: uzoq yashaydigan va bo'ysunmaydigan odamlarni "ta'lim va axloq orqali zabt etish" kerak. "Agar siz ularni zabt eta olsangiz, - deya qo'shimcha qiladi u, - ular orasida tinchlik hukm suradi". Uning ushbu madaniy va tinchlikparvarlik motivlari keyinchalik Xitoy hukmdorlari tomonidan boshqa xalqlarni bosib olish va o'z hokimiyatiga bo'ysundirish harakatlari uchun axloqiy niqob sifatida foydalanilgan.

Avreliy Avgustin ta'limotiga ko'ra, tabiat odamlarni ichki tinchlik va tashqi xavfsizlikni ta'minlash uchun avval oilalarga, keyin davlatlarga birlashishga undaydi. **Avgustin bir necha turdagi qonunlar haqida yozadi:**

Koinotning abadiy qonuni. Koinotning abadiy qonuni umumbashariy tartibning me'yoriy ifodasidir. Avgustinning o'zi buni "unga ko'ra, hamma narsa eng mukammal tartibda bo'lishi adolatli" deb ta'riflaydi;

Ilohiy qonun. Bu orqali Avgustin Xudoning oqilona va adolatli farmoyishlarini tushunadi. Yozma ilohiy qonunlar "muqaddas kanonik kitoblarda" mavjud: Eski va Yangi Ahdlar. Aynan mana shu qonun insonning Xudo bilan hamda insonning inson bilan munosabatini belgilaydi;

Tabiiy qonun yoki tabiat qonuni (jismoniy va boshqalar). Tabiatshunoslik, fizika, tabiat bir xil narsaning turli nomlari. Avgustin fizik (tortishish qonuni), biologik (hayotning davom etishi, nasl qoldirish qonuni, turli fiziologik qonunlar) haqida yozadi. Bu yerda u muloqot qonunini va odamlar o'rtasida tinchlikni saqlashni ham o'z ichiga oladi.

Fuqarolik qonuni. Tabiat qonunlari so'zsiz kuchga ega, ammo inson faoliyati bilan bog'liq bo'lganlarni amalga oshirish tartibi inson yoki fuqarolik qonunlari bilan belgilanadi. Xuddi shu qonun ilohiy qonunlarni majburiy ravishda belgilaydi va ta'minlaydi. Fuqarolik qonuni zarur, chunki u yerdagi tartibni o'rnatadi.

Foma Akvinskiy siyosiy qarashlariga nazar tashlasak boshqaruvning eng yaxshi va tabiiy shaklini monarxiya deb hisoblaydi, bu yerda hukmdor xalq vakili hisoblanadi. Uning fikricha, tarixiy tajriba monarxiya afzalligini tasdiqlaydi. Agar hokimiyat bir kishiga tegishli bo'lsa, davlat muvaffaqiyatga erishadi. Hokimiyat ko'pchilikka tegishli bo'lgan joyda doimo notinchlik va tartibsizliklar paydo bo'ladi.

Abu Nasr Forobiy ulug' gumanist, insonparvar faylasuf va siyosiy olim sifatida inson qadriyatini kamsituvchi hamda o'zga mamlakatlarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqadi. Mutafakkir odamlarni tinch-totuv va o'zaro hamkorlikda yashashga, insonparvar bo'lishga da'vat etadi. Forobiyning ijtimoiy-falsafiy va siyosiy g'oyalari XVI-XX asrlarda ham musulmon mamlakatlarida keng yoyildi, bu mamlakatlar olimlari Forobiyning falsafiy merosini katta qiziqish bilan o'rgandilar. Mutafakkirning gumanistik va axloqiy g'oyalari hozir ham insoniyatni baxt-saodatga erishuvi, jahonda tinchlik o'rnatish ishiga, kelajak avlodni yetuk va barkamol inson bo'lib yetishuviga, ilm va ma'rifat yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Ibn Sinoning siyosiy-huquqiy qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, unda mutafakkir davlatning mavjudligini jamiyat bo'linishi bilan bog'lab, o'zaro uchta tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Qonun ijodkorining qonun ishlab chiqarish va mamlakat boshqaruvidagi asosiy maqsadi jamiyatni uch toifaga bo'linishi lozimligi bilan bog'lab o'tadi. Bular: 1) boshqaruvchilar; 2) hunarmandlar va 3) harbiylar. U qonun chiqaruvchining har bir guruh tepasiga bir rahbar tayinlanishi lozimligi, uning ostidagilar uchun esa boshqa rahbarlar qo'yilishi va u odamlarning umumiy boshqaruvga kelguniga qadar davom etishi lozimligi ta'kidlangan.

Mutafakkir, davlatda barqarorlik va tinchlikni saqlash uchun barcha narsa qonun bilan tartibga solinishi va bunga mas'ul bo'lgan shaxslar jamiyatning uchta tarkibiy qismini qamrab olishi lozimligini uqtiradi: birinchidan, mutafakkir hokimiyatning o'z tarkibiga ko'ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan iborat bo'lishi, ular boshqaruv qoidalarini ishlab chiqish orqali davlatni boshqarishga mas'ul ekanligini ta'kidlaydi; ikkinchidan, tadbirkor va ishbilarmonlarni mamlakatdagi iqtisodiy ishlarni rejalashtiruvchi, tashkil etuvchi va amalga oshiruvchilar sifatida tavsiflaydi; uchinchidan, davlat qo'riqchilari (soqchilar), harbiylar, siyosatchilarni davlat xavfsizligini muhofaza qilishga javobgar bo'lgan tashkilotlar sifatida talqin etadi.

Germaniyadagi reformatsiyaning boshlanishida Vittenberg universiteti professori, ilohiyot fanlari doktori Martin Lyuter (1433-1546)ning roli katta bo'ldi. U Rim-katolik cherkovining rasmiy ta'limotini "tuzatish" tarafdori bo'lgan mo'tadil yo'nalish mafkurachisi edi. Lyuter o'zining "Dunyoviy hokimiyat to'g'risida" (1523)gi asarida Xudo ikkita hokimiyatni yaratganligini ta'kidladi: diniy - haqiqiy imonlilar uchun va dunyoviy davlat - tashqi tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash maqsadidagi odamlar uchun. Davlatga (ya'ni, dunyoviy hokimiyatga) ehtiyoj insonning gunohkor tabiatidan kelib chiqadi. Lyuter "Butun dunyo g'azablangan va ming kishi orasida bitta haqiqiy xristianni topish qiyin bo'lganligi sababli, odamlar bir-birlarini yutib yuborishadi, ayollar va bolalarni himoya qiladigan, ularni boqadigan va Xudoga xizmat qiladigan hech kim bo'lmaydi va dunyo bo'sh bo'ladi", - deb ta'kidlaydi [2].

Davlat va huquqni tushuntirishda sotsiologik yondashuvning asochilaridan biri italiyalik mutafakkir-ensiklopedist, faylasuf, tarixchi, tilshunos, huquqshunos Jan Battist Viko (1668–1744) hisoblanadi. Uning fikricha, fuqarolik hayotiga erishgandan so'ng, u shaharni asrab qolish bilan birga o'zini asrab qolishni ham yaxshi ko'radi; davlat hokimiyati ko'plab xalqlarga tarqalganda, u millatlarni asrab qolish bilan birga o'zining asrab qolinishni yaxshi ko'radi; va xalqlar urushda, tinchlikda, ittifoqlarda va savdoda birlashganda, u butun insoniyat irqini saqlab qolish bilan birga o'zini asrab-avaylanishni yaxshi ko'radi. Bu sharoitlarning barchasida inson eng avvalo o'z manfaatini yaxshi ko'radi" [3].

Jan Boden (1530-1596) - buyuk fransuz mutafakkiri va siyosatchisi. J.Boden davlat suverenitetini tashqi va ichkiga ajratadi. Tashqi jihatdan, u Rim papasidan mustaqillikni, ichki jihatdan - o'rta asrlarga tanish bo'lgan barcha separatistik siyosiy institutlarni, birinchi navbatda, vassallik tizimini yo'q qilishni tushundi. J.Boden ichki suverenitetning beshta belgisini ajratib ko'rsatadi:

- davlatning barcha subyektlari va muassasalariga qaratilgan qonunlarni ishlab chiqishi;

SIYOSAT

- urush va tinchlik muammolarini hal etishi;
- mansabdor shaxslarni lavozimga tayinlash va ularning vazifalari doirasini belgilashi;
- oxirgi instansiya sudi sifatida faoliyat yuritishi;
- afv etish.

J.Boden Aristotelning davlatning maqsadi insonlar baxtiga erishishdir, degan umume'tirof etilgan siyosiy g'oyasiga qarshi chiqdi. Uning fikricha, davlatning maqsadi ichki tinchlik, adolat va ijtimoiy totuvlikni ta'minlash, tashqi dushmanlardan himoya qilishdir.

Gyugo Grotsiy (1583-1645) golland olimi, taniqli siyosatchi va huquqshunos, tabiiy huquqning ratsionalistik konsepsiyasining asoschisi. Uning asosiy asari – "Urush va tinchlik huquqi to'g'risida"gi uchta kitob. Ularda tabiiy huquq va xalqlar huquqi hamda ommaviy huquq tamoyillarini tushuntiradi. Grotsiy **xalqaro huquqni** o'rganib chiqib, uning o'ziga xos xususiyatini kuch deb aytadi. Shuning uchun urush kuchlar kurashi holati sifatida tabiiy huquqqa zid kelmaydi. Ammo bu barcha urushlar joiz degani emas. Gyugo Grotsiy mafkurachilardan birinchi bo'lib adolatli va nohaq urushlar muammosini ilmiy-nazariy asosga qo'ydi.

Adolatli urushlar - mudofaa, davlat yaxlitligini saqlash, mulkni himoya qilish; adolatsiz urushlar - boshqalarning mulkini egallash, boshqa xalqlarni zabt etish uchun olib borilgan bosqinchilik deb ta'kidlaydi. Urushning asosiy maqsadi adolatli, tabiiy huquqqa asoslangan tinchlik o'rnatish bo'lishi kerak. Grotsiy tomonidan ishlab chiqilgan tabiiy huquq va ijtimoiy shartnoma nazariyasi tezda boshqa mamlakatlarda o'z tarafdorlarini topdi. Uning xalqlar va davlatlar o'rtasidagi tenglik va hamkorlik tamoyillariga, xalqaro huquq va tartib g'oyasiga asoslangan tinchlik haqidagi ta'limoti Gyugo Grotsiyni "xalqaro huquqning otasi" deb aytishga asos bo'ldi.

Davlatning shartnomaviy kelib chiqishi haqidagi ta'limotni biz o'sha davrning ikkita eng muhim ingliz faylasufi: Gobbs va Lokkda uchratamiz. **Tomas Gobbs (1588 - 1679)** birinchilardan bo'lib ilohiy asoslarsiz tabiiy huquqning sof tamoyillariga asoslanib, davlat to'g'risidagi to'liq va tizimli ta'limotni bergan zamonaviy yozuvchilardan biridir.

Gobbs inson tabiatida bu ayanchli ahvoldan qutulishga yo'l ko'rsatuvchi, unga turtki beruvchi omillar ham borligini aytib o'tadi. Uning fikricha, o'limdan qo'rqish va o'z jonini omon saqlab qolishga intilish hissi insonlarni tabiiy holat qiyinchiliklarini yengib o'tishga undaydi. Bu o'rinda tabiiy qonunlarning o'zi insonlarga yo'l ko'rsatadi. Ushbu vaziyatda eng muhimi tinchlikka erishishdir. Bu birinchi tabiiy qonundir. Tinchlik, xotirjamlikka erishish esa insonlardan o'zlariga tegishli bo'lgan ma'lum huquqlardan voz kechishni talab qiladi. Bu ikkinchi tabiiy qonundir. Adolatning manbai va asosi o'z ifodasini topgan uchinchi tabiiy qonun esa shartnomadan kelib chiquvchi huquq va majburiyatlarga rioya qilishdir. Gobbs shartnomani insoniyatni tinchlikka yetaklovchi eng muhim omil sifatida ko'radi. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari qator tabiiy qonunlarga asoslangan bo'lib, ularni umumlashtirganimizda quyidagi qoida kelib chiqadi: o'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rma [4].

Gobbs avtoritar siyosiy tizimning vakili sifatida suveren (mustaqil oliy hokimiyat egasi)ga cheksiz vakolatlar berdi: unda u barcha turdagi hokimiyatlarning (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) aralashmasini ko'rdi. Shu sababli, u hokimiyatning qirol, lordlar palatasi, jamoatlar palatasi o'rtasida bo'linishiga qarshi edi, buni davlatning yo'q bo'lib ketishi va qulashining sabablaridan biri deb hisobladi. Suveren urush e'lon qilish va tinchlik o'rnatish huquqiga, maslahatchilarni, vazirlarni tanlash huquqiga, zararli ta'limotlarni, shu jumladan, oliy hokimiyatni cheklashga qarshi va'zlarni taqiqlash huquqiga ega edi [5].

Monteskye Gobbsning odamlarga dastlabki tajovuzkorlik va bir-biriga hukmronlik qilish istagini, bildirgan fikri noto'g'ri ekanligini alohida ta'kidlagan. Aksincha, inson, Monteskyening so'zlariga ko'ra, "dastlab zaif, o'ta qo'rqoq va boshqalar bilan tenglik va tinchlikka intiladi. Bundan tashqari, hokimiyat va hukmronlik g'oyasi shunchalik murakkab va boshqa ko'plab g'oyalarga bog'liqki, u o'z vaqtida insonning birinchi g'oyasi bo'la olmaydi. Ammo odamlar jamiyatda birlashgandan so'ng, ular o'zlarining zaif tomonlarini yo'qotadilar. Ular o'rtasida mavjud bo'lgan tenglik yo'qoladi, ikki turdagi urushlar boshlanadi - shaxslar va xalqlar o'rtasida". Urushning bu ikki turining paydo bo'lishi, - deb yozgan edi Monteskye, "odamlar o'rtasida qonunlar o'rnatilishiga turtki beradi".

Immanuel Kant (1724-1804) - nemis faylasufi va ma'rifatparvarlik davrining markaziy mutafakkirlaridan biri. 1795-yilda u "Abadiy tinchlik sari" risolasini nashr etdi va unda huquq va davlat haqidagi umumiy qarashlarni rivojlantirdi.

I.Kant qonuniy (mudofaa) va noqonuniy urushlarni ajratib ko'rsatadi. Kant - pasifist, antimilitarist, tinchlik kurashchisi. Urushning oldini olishga yordam beradigan bir qator prinsiplarni shakllantiradi. Tinchlikning to'liq g'alabasi barcha davlatlarni huquq asosida federatsiyaga birlashtirgandagina (har bir davlat o'z suverenitetini saqlab qoladi) sodir bo'ladi. Abadiy tinchlik garchi haqiqatga to'g'ri kelmasa ham qat'iy imperativdir. Davlat, Kantning fikricha, huquqiy qonunlar doirasidagi odamlar birlashmasi. Uning maqsadi - barcha fuqarolar uchun adolatni ta'minlash, shuning uchun har bir davlatda fuqarolik tuzilishi respublika bo'lishi kerakligini ilgari surdi. Russodan Kant xalq suvereniteti g'oyasini olib, unga ko'ra qonun chiqaruvchi hokimiyat faqat xalqning yagona irodasiga tegishli bo'lishi mumkin [5].

XULOSA

Xullas, Sharq va G'arb mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi urush va tinchlik to'g'risida to'plangan siyosiy-huquqiy tajribalarni o'zida ifoda etib, bugungi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu konsepsiyalar fuqarolar siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirib, xalqaro huquq sohasidagi ilg'or g'oyalar, qarashlar, mulohazalar, nazariyalar, konsepsiyalar va ta'limotlarning mazmun mohiyatini tushuntirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning yuksak ishonchini oqlash, erishgan yutuqlarimizni yangi, yanada ulkan natijalar bilan mustahkamlash – bosh vazifamiz // "Xalq so'zi" gazetasi, 2023 yil 15 iyul, №145 (8488).
2. Лютер М. О светской власти. Избр. произведения. -СПб: Фонд "Лютеранское наследие", 1994.
3. Вико Дж. Основания новой науки об общей природе наций / пер. с итал. М.: Киев: Новая мысль.
4. Мухиддинова Ф. Ўзбекистон сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлари тарихи. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006.
5. Голикова А.К., Исаева Б.А. История политических учений. -СПб.: Питер, 2012.
6. Sobirovich, T. B. (2025). The Development of Political Doctrines in Central Asia (17 th–19th Centuries). Development, 9(1), 13-22.
7. Sobirovich, T. B. (2020). Evolution of ideas and views on the development of democratic society and spiritual renewals. Scientific Bulletin of Namangan State University, 10, 243-250.
8. Turdiyev, B. S., & Wekke, I. S. (2024). Illuminating the Legacy of Al-Farabi, Ibn Sina, and Al-Biruni: Exploring Political and Legal Philosophies in Transoxiana. Asian Journal of Basic